

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**AVEZOV ELBEK TO‘RAYEVICH**

**AMERIKA VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA BADIY PSIXOLOGIZM  
TAMOYILLARI  
(O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Avezov Elbek To‘rayevich**

Amerika va o‘zbek adabiyotida badiiy psixologizm tamoyillari  
(O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalari misolida)..... 3

**Авезов Элбек Тураевич**

Принципы художественной психологии в американской  
и узбекской литературе  
(на примере рассказов О. Генри и У. Хошимова)..... 25

**Avezov Elbek Turayevich**

Principles of Artistic Psychology in American and Uzbek Literature  
(On the example of the stories of O. Henry and U. Hoshimov)..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**AVEZOV ELBEK TO‘RAYEVICH**

**AMERIKA VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA BADIY PSIXOLOGIZM  
TAMOYILLARI  
(O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2093 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umarova Maxliyo Yunusovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Sodiqov Zohidjon Yakubjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Ko'chimov Ulug'bek Quchqarovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (998 71) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: [www.uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:www.uzswlu_info@mail.ru))

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**I.M. Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

**X.B. Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**J.A. Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligining tadrijiy taraqqiyotida proza ichki kechinmalarni, ruhiyat manzaralarini badiiy haqiqatga aylantirishda noyob tajribalar o'tkaziladigan ulkan tajriba maydoniga aylandi. Hozirgi texnokratlashgan dunyoda ijodkorlar asosan voqeadan ko'ra ruhiyat tahliliga alohida ahamiyat qaratishmoqda. Ilm-fan, texnika jadal rivojlanayotgan bir pallada insonni hayratlantirish, qalbida hissiyotlar junbushini uyg'otish mushkulotga aylandi. Badiiy asar, jumladan romanlarda ruhiy tahlil voqealar tasviriga xizmat qilsa, zamonaviy hikoyachilikda voqea-hodisa tasviri ruhiy holatni ochishga, kitobxon tasavvurida bu holatning aniq, ta'sirli ifodalanishiga ko'maklashmoqda. Qahramon psixologiyasini yoritish, ko'ngil jumboqlarini kashf etish yozuvchilarning bosh maqsadiga aylanadi. XIX-XXI asr hikoyalarida insonning xatti-harakatlaridan ko'ra, qalb kechinmalari, ruhiyat tovlanishlari ko'proq ifoda etilmoqda. Odamni faoliyat vositasi emas, balki chigal ichki dunyo egasi sifatida tasvirlash jahon va o'zbek hikoyachiligidagi bosh yo'nalishga aylanib bormoqda.

Dunyo xalqlari badiiyatida inson taqdiri, uning ruhiy kechinmalari olam va odamni anglash maqomi negizida badiiy tahlil etiladi. Epik turning kichik janrlaridan biri bo'lgan hikoyalardagi inson obrazini gavdalantirishning eng muhim omili ham uning botiniy olamini ochib berishdir. Zero, tashqi olam ta'siri ham inson botinida o'z aksini topadi va bo'y ko'rsatadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib shakllangan psixologik metod asosida badiiy asarlarni tekshirish, umuman, badiiy psixologizm muammosi asosiy mezonni tashkil qildi. Psixologizmni badiiy hodisa sifatida o'rganish o'zaro bog'liq bo'lgan ikki jihat – psixologizm tabiati, ya'ni insonning ichki dunyosini tushunishning o'ziga xos xususiyatlari va poetikasi hamda muallifning inson psixologiyasi haqidagi badiiy g'oyasini ifodalashga imkon bergan psixologik tasvir mahoratiga bog'liq. Har bir adabiy davr psixologik tahlilning yangi bosqichlari va usullarining turli qirralarini ochib beradi. Sharq va G'arbning mashhur adiblari ijod psixologiyasini, botiniy olamni tasvirlash mahoratini o'rganish hamda qiyosiy tadqiq etish makrokomparativistikaning takomillashuviga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida psixologizm konsepsiyasini jahon kontekstida o'rganish va tadqiq etish masalalariga jiddiy e'tibor berilmoqda. "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz... Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak"ligi ta'kidlanadi. Psixologizm asar muallifi tomonidan qahramon ichki dunyosini, uning his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, ong va ongosti evrilishlari orqali ifodalanar ekan, poetik vositalar tizimini shakllantiradi. Amerika va o'zbek yozuvchilari hikoyalari misolida badiiy psixologizm muammosini tadqiq etish o'sha millat adabiy jarayoni hamda

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий мажлисга мурожаатномаси. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>.

mualliflarning individual uslubini yoritish imkonini beradi. Qolaversa, har bir yozuvchining badiiy-estetik dunyosi o'ziga xos bo'lib, asarlaridagi ruhiy tahlil usullarining yangi qirralarini qiyosiy o'rganish tadqiqot mavzusining dolzarbligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida badiiy psixologizm konsepti, badiiy asarlarda qahramon psixologiyasi, ruhiy tahlil masalalari kabi muammolar atroficha o'rganilgan, shuningdek, muallif va qahramon ruhiyatining bog'liqligi bo'yicha ham muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning dastlabkisi sifatida e'tirof etish joiz bo'lgan, aynan badiiy psixologizm masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar G. Alport, G. Yung, J. Xafmen, N. Xolland, D. Gari<sup>2</sup>lar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, rus adabiyotshunoslaridan N.G. Chernishevskiy, D. Lixachev, L.Ya. Ginzburg, S.G. Bocharov, I.V. Straxov, V.V. Kompaneys, A.B. Yesin, A.N. Iyezuitov, T.V. Balashov, A.G. Kovalev<sup>3</sup>larning ishlarida qahramon ichki

---

<sup>2</sup> Allport G. Personality: A psychological interpretation. – N. Y.: Holt, 1937. XIV. – 588 p.; Jung C.G. Psychology and religion: west and east. – New York, 1953; Huffman, James. A Psychological Critique of American Culture. The American Journal of Psychoanalysis 1982. – 42 p.; Norman N. Holland. Holland's Guide to Psychoanalytic Psychology and Literature-and-Psychology. – New York: Oxford University Press, 1990. –154 p.; Gary D. Narrative and Consciousness: Literature, Psychology, and the Brain. – New York: Oxford University press, 2003. – 252 p.

<sup>3</sup> Чернышевский Н. Г. Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека "Огонек". – М.: "Правда", 1974 ([http://az.lib.ru/c/chernyshewskij\\_n\\_g/text\\_0240.shtml](http://az.lib.ru/c/chernyshewskij_n_g/text_0240.shtml)); Лихачев Д.С. Внутренний мир художественного произведения // Вопросы литературы. 1968. – № 8. – С. 74-79; Гинзбург Л.Я О психологической прозе. – Л.: Совет, писатель, 1971. – 464 с; Бочаров С. Психологическое раскрытие характера в русской классической литературе и творчестве Горького // Социалистический реализм и классическое наследие (проблема характера). – М.: Гослитгиз, 1960. – С. 89-210; Страхов И.В.

olamini badiiy tasvir etish, xarakterlarning psixologik holatlarini aks ettirish usullari keng ko‘lamda o‘rganilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asar qahramonlarining psixologiyasi haqidagi ilk tadqiqotlar XX asrning o‘rtalarida A. Alimuhamedov, P. Shermuhamedov<sup>4</sup> ishlarida ko‘zga tashlansa, keyinchalik bu kabi nazariy qarashlarni H. Umurov, D. Quronov, B. Karimov, A. Xolmurodov, Sh. Doniyorova, S. Kamilova, P. Kenjayeva, M. Boboxonov, U. Ko‘chimov<sup>5</sup> kabi olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin.

Taniqli amerika adibi O. Genri va mashhur o‘zbek yozuvchisi O‘. Hoshimov ijodi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, har ikki yozuvchi hikoyalarining badiiy o‘ziga xosligi masalasi yaxlit monografik tadqiqot sifatida o‘rganilmagan<sup>6</sup>. Bevosita amerika va o‘zbek adabiyotida qahramon psixologiyasining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ishlar hamda ularning ilmiy muammolari yetarli darajada tahlil etilmagani bois ushbu muammoni ilmiy asosda tadqiq etishga ehtiyoj tug‘ildi. Zero, haqiqiy so‘z san‘atkori o‘zidan oldingi ijodkorlarning tajribasiga tayangan holda, inson tabiatining murakkabligi va noaniqligini ochib berishning o‘ziga xos usulini topishga intiladi. Shunday ijodkorlar sirasiga mansub O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida qahramon psixologiyasining nazariy asoslari masalalarini qiyosiy aspektda o‘rganish asosida amerika va o‘zbek hikoyachiligi bo‘yicha yaxlit ilmiy tasavvur qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

---

Психологический анализ в литературном творчестве: пособие для студентов пед. ин-тов: в 5 ч. Ч. 1. Саратов: Изд-во Саратов. пед. ин-та, 1973. 57 с.; Фрейд З. Остроумие и его отношение к бессознательному / “Я” и “Оно”. – Тбилиси: Мерани. – 1991; Компанеев В.В. Художественный психологизм в советской литературе (1920-е годы). – Л.: Наука: Ленингр. отделение, 1980. – 113 с; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – 176 с; Иезуитов А. Н. Проблемы психологизма в эстетике и литературе // Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: Наука, 1970. – С. 39-57; Балашова Т.В. Эрве Базен и нути французского психологического романа. – М.: Худож. лит-ра, 1987. – 270 с.; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Л.: ЛГУ, 1960. – С. 214.

<sup>4</sup> Алимухамедов А.А. Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир. //Шарқ юлдузи, 1947. – № 2-3; Шермухамедов П. Рухий олам кўзгуси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 273.

<sup>5</sup> Умуров Ҳ. Ўзбек романчилигида бадий психологизм. Монография. – Т.: Фан, 2007. – Б. 204; Қуронов Д.Х. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романида характерлар психологизми: филол. фан. ном. ... дисс. – Т., 1992; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 361; Холмуродов А. Одил Ёқубов романларида психологизм: филол. фан. ном. ... дисс. – Т., 1991. –153 б.; Дониярова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: филол. фан. д-ри. дисс. ...автореф. – Т., 2012; Камилова С.Э. Нравственно-психологический искания в художественной литературе 70-90-х годов XX века (на материале произведений В.Распутина и А.Якубова): дисс. канд: филол. наук. – Т., 2008; Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: филол. фан. ном. дисс. автореф. –Т., 2008; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек кичсачилигида психологизм: филол. фан. ном. дисс. автореф. –Т., 2012; Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадий психологизм (Улуғбек Ҳамдамнинг “Мувозанат”, “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самандар” романлари мисолида): филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. –Т., 2020; Қобилова Н. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм: филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. –Т., 2020; Кўчимов У. Фантастик асарларда бадий психологизм концепцияси (Рэй Брэдбери ва Ҳожиақбар Шайхов ижоди мисолида): филол.фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. –Т., 2021; Бобоқулов Ю. XXI аср ўзбек романларида инсон руҳияти талқини: филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Т., 2022.

<sup>6</sup>Pattee F. L. The Age of O. Henry // Side-lights on American Literature. – N. Y.: The Century Co., 1922. yana: O. Henry and Ihe Handbooks // The Development of the American Short Story: An Historical Survey. – N. Y.: Harper and Row, 1923.; Жданова Д. Поэтика художественной речи в новеллах О. Генри: автореф. дисс. ... канд: филол. наук. – М., 2012; Имомкаримова М. Ўтқир Ҳошимов асарларида миллий кадриятлар талқини: филол. фан. ном. дисс. автореф. – Т.: 2004; Дуйсенбаев О. Ўтқир Ҳошимов ижодида она образи: филол. фан. ном. дисс. автореф. – Т., 2011.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 204-4-5 “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” loyihasining “Amerika va o'zbek adabiyotining qiyosiy tipologiyasi” (2021-2023) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Amerika yozuvchisi, qisqa hikoyalar ustasi O. Genri va taniqli o'zbek adibi O'. Hoshimov hikoyalarida badiiy psixologizmning namoyon bo'lish usullari, yozuvchilarning qahramon ruhiyatini tasvirlash borasida tayanadigan badiiy-estetik tamoyillarini ilmiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik hamda nazariy jihardan ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

Amerika va o'zbek hikoyachiligida badiiy psixologizmning asoslariga doir ilmiy-nazariy omillarni o'rganish, tahlil etish va ularning ilmiy xulosalarini umumlashtirish;

O. Genri va O'. Hoshimov hikoyalarida psixologik konflikt, roviylik kabi psixologizm ifoda xususiyatlarining namoyon bo'lishini qiyoslash orqali badiiy psixologizmni aks ettirishdagi yozuvchilarning adabiy-estetik mahoratini dalillash;

badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi tasvir vositalari va poetik usullarni, qahramonning ichki dunyosi, ruhiy ahvoli, psixik kayfiyatlari, kechinma va his-tuyg'ularini ochishning muhim vositasi bo'lgan personajlarning nutqiy ta'rif-tavsiflarini o'rganish;

hikoyalar mavzusi va g'oyasini ochishda psixologik vosita hamda usullarning ahamiyatini izohlash, obrazlarining ruhiy olami, ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy omillarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish;

O. Genri va O'. Hoshimov hikoyalarida tasvirlangan voqealarni bir joyga jamlab, umumlashtiradigan nuqta – sirli voqeiy halqa, kutilmaganlik effekti va yechim masalalarini izohlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O. Genrining “Afsungarlarning tuhfalari” (“The gift of the Maggi”), “So'nggi yaproq” (“The last leaf”), “Mo'jizaviy kulchalar” (“Witches loaves”), “Birja dallolining sevgisi” (“The Romance of a Busy Broker”), “O'n dollarlikning hikoyasi” (“The Tale of a Tainted Tenner”), “Taqdir hazili” (“A Story about the Irony of Fate”), “Tomiringizni ushlab ko'rsam maylimi?” (“Let Me Feel Your Pulse”) hikoyalari; O'. Hoshimovning “Quyosh tarozisi”, “Urushning so'nggi qurboni”, “Umr savdosi”, “Telpak”, “Musofir bo'lmaguncha”, “Baxt”, “Xayollarga bo'laman tutqun...” hikoyalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** O. Genri va O'. Hoshimov hikoyalarida badiiy psixologizm tasviri, uning namoyon bo'lish shakllari va o'ziga xos xususiyatlarini qiyoslashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirish uchun biografik, qiyosiy-tipologik, psixoanalitik, psixologik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qahramon yaratishning muhim unsuri bo'lgan badiiy psixologizmning usul va vositalaridan foydalanishda Amerika hamda o'zbek hikoyachiligidagi ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik timsollar va ularning turli

xususiyatlarini ifodalash kabi universal va analitik, dinamik prinsiplarini qo‘llash uslubidagi o‘ziga xos jihatlar dalillangan;

hikoyalarda O. Genri va O‘. Hoshimovning personaj ruhiy olamidagi evrilishlar, kechinma va holatlarning mohiyatini butun murakkabligi bilan qamrab olishdagi betakror mahoratlari, hayotiy materialga Sharq va G‘arb an‘analarining adabiy-estetik sintezi asosida yondashish, har ikki mamlakatning madaniyati va qadriyatlari saqlangan holda badiiy psixologizmning namoyon bo‘lish tamoyillari tasvir va ifodaning aniqligi mezoni asosida izohlangan;

hikoyalarda inson hayotini badiiy talqin etish; qahramon ichki dunyosi bilan uni o‘rab turgan tashqi olamning ijtimoiy munosabatlari, psixologik konflikt va ruhiy tahlil vositalarining namoyon bo‘lish mohiyati, ularni yaratishda mualliflarning hikoya qilish uslubi pafosning hayotiyliigi va tiniqligi mezoni asosida aniqlangan;

O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi portret, peyzaj, nutq, ichki monolog, psixologik detal, tush motivi, qistirma epizod kabi psixologik tahlil vositalari badiiy substant – obrazning moduslari uning ruhiy kechinmalari va ana shu kechinmalarga mos tashqi qiyofa tasviridagi uyg‘unlik mezoniga ko‘ra asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hikoyalarda qahramon ruhiyati tasvirining G‘arb va Sharqqa xos adabiy an‘analari, badiiy psixologizmning ifoda usullaridagi farqli va o‘ziga xos jihatlar bo‘yicha nazariy xulosalar chiqarilgan;

O. Genri va O‘tkir Hoshimov hikoyalarida qahramon ruhiyatini ifodalovchi portret, peyzaj, nutq, ichki monolog, psixologik detal, tush motivi, qistirma epizod kabi poetik vositalar yozuvchilarning ijod psixologiyasi nuqtai nazaridan baholangan;

O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida ko‘p uchraydigan kitobxonni hayratga soluvchi va hikoyaga joziba beruvchi kutilmaganlik effekti va sirli yechim ilmiy-nazariy aspektda isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalar qiyosiy-tipologik, kontekstual, biografik, psixoanalitik, psixologik tahlil usullari bilan asoslangani, tanlangan hikoyalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, ishonchli nazariy manbalar, nashrlar hamda lug‘atlardan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar badiiy psixologizmning analitik, dinamik, tipologik prinsiplari, psixologizmni ifodalovchi vositalar – psixologik detal, tafsilot, personajlarning xatti-harakatlari; qahramonlarning ichki olamidagi murakkabliklarni tavsirlash vositalari – psixologik portret, tavsif, konflikt, motiv, syujet; qahramonning o‘zligini anglashi, ichki “men”inini topishi, zamon va makon taqozosiga ko‘ra personajning ruhan o‘zgarishi, O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida qahramon ruhiyati, yozuvchilarning ruhiyat manzaralarini tasvirlash mahorati bo‘yicha ilmiy-nazariy muammolarni o‘rganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qahramon ruhiyati muammosini amerika va o‘zbek ijodkorlari asarlari misolida qiyosiy tahlil etishda adabiy-estetik manba vazifasini bajara olishi hamda uning xulosalaridan jahon va o‘zbek adabiyoti tarixi, tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, tarjima nazariyasi kabi fanlarni va maxsus kurslarni o‘qitishda hamda o‘quv qo‘llanmalari, xrestomatiya, darslik, majmua, lug‘atlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Amerika va o‘zbek hikoyachiligida, xususan, O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida badiiy psixologizm muammolarini tadqiq etish hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

qahramon yaratishning muhim unsuri bo‘lgan badiiy psixologizmning usul va vositalaridan foydalanishda Amerika hamda o‘zbek hikoyachiligidagi ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, gallyutsinatsiya, psixologik timsollar va ularning turli xususiyatlarini ifodalash kabi universal va analitik, dinamik prinsiplarini qo‘llash uslubidagi o‘ziga xos jihatlar dalillanganiga doir ilmiy xulosalardan A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida Xalq ta’limi tizimidagi pedagog-xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarini tashkil etish bo‘yicha 2021-2022-yillarda bajarilgan “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2022” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot insitutining 2023-yil 26-sentabr 02-07/150-son ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy-tadqiqot ishining umumiy mazmun-mohiyati, unda ilgari surilgan yondashuvlar, tahlil va mulohazalar tinglovchilarni kitobxonlikka jalb qilishga va Amerika adabiyoti borasidagi ilmlarini kengaytirishga imkon bergan;

hikoyalarda O. Genri va O‘. Hoshimovning personaj ruhiy olamidagi evrilishlar, kechinma va holatlarning mohiyatini butun murakkabligi bilan qamrab olishdagi betakror mahoratlari, hayotiy materialga Sharq va G‘arb an‘analarning adabiy-estetik sintezi asosida yondashish, har ikki mamlakatning madaniyati va qadriyatlari saqlangan holda badiiy psixologizmning namoyon bo‘lish tamoyillari tasvir va ifodaning aniqligi mezonini asosida izohlanganiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2022-2023-yillarda bajarilayotgan IL 21091378 raqamli “Oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish” mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 3-martdagi 04/98-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning Amerika hikoyachiligida qahramon ruhiyatini ifodalashda badiiy psixologizmning ahamiyatini tahlil qilish imkoniyati yuzaga kelgan;

O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi portret, peyzaj, nutq, ichki monolog, psixologik detal, tush motivi, qistirma epizod kabi psixologik tahlil vositalari badiiy substant – obrazning moduslari uning ruhiy kechinmalari va ana shu kechinmalarga mos tashqi qiyofa tasviridagi uyg‘unlik mezoniga ko‘ra asoslangani borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar va xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini, el-yurtimizning fidokorona mehnati bilan

erishilayotgan tub o'zgarishlarni teran aks ettirishga qaratilgan yuksak badiiy asarlar yaratishga rag'batlantirish, o'zbek adiblari ijodini jahon adabiyoti kontekstida tahlil qilish hamda yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini o'tkazish chora-tadbirlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 3-oktabrdagi 01-03/1063-ma'lumotnomasi). Natijada O. Genri va O'. Hoshimov hikoyalarida badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi tasvir vositalari, mualliflarning ijodiy mahorati kontekstida kutilmaganlik effekti va yakun masalalari mushtarakligi borasidagi umumlashma xulosalar yosh yozuvchilar uchun nazariy manba sifatida xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Badiiy psixologizm umumnazariy muammo sifatida**" deb nomlanadi. Bobning "Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm mexanizmi" nomli birinchi faslida badiiy asarda turli poetik vositalar – portret, peyzaj, monolog, dialog, tush, badiiy detal, hissiy harakatlar (mimika va pantomimika), nutqiy xarakteristika (roviy), gallyutsinatsiya qahramon psixologiyasini aks ettirishi, badiiy psixologizm badiiy obraz bilan bog'liq hodisa bo'lib, adabiy tur va janrlar kesimida farqlanishi haqida so'z boradi. Adabiyotda inson ruhiyati tasviri hamisha muhim masala sanaladi. Adabiy qahramonlar ruhiyatini ochish, xohish intilishlari va tutumlarining sabablarini tahlil etish orqali kitobxon ko'ngliga yo'l topish yozuvchilar badiiy mahoratini bildirishi shak-shubhasiz<sup>7</sup>. Adabiyotshunoslik lug'atida badiiy psixologizmga quyidagicha ta'rif berilgan: "Badiiy psixologizm – badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri: personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga

<sup>7</sup> Матёқубов С. Бадий психологизм қирралари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2006. – №4. – Б.72-74.

xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami”<sup>8</sup>. Psixologizmning terminologik ta’rifi bo’yicha turli qarashlar mavjud bo’lib, bulardan adabiyotshunos A.B. Yesin: "Psixologizm – badiiy shaxs (adabiy qahramon)ning o’ziga xos badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda, his-tuyg’ulari, fikrlari, kechinmalarini batafsil va chuqur tasvirlash"<sup>9</sup> deya ta’riflasi, yana bir adabiyotshunos L.Y. Ginzburg psixologizmni “ruhiy hayotning ziddiyatlari va tubidagi tadqiqi”,<sup>10</sup> deya e’tirof etadi. Olim ruhiy hayot sifatida qalb evrilishlarini nazarda tutadi. Qahramon qalbining chuqur o’zanlariga falsafiy va zakiy nigoh solish tadqiqotchidan kuchli bilim talab qiladi. Badiiy psixologizm hodisasiga adabiyotshunoslar turlicha yondashdilar, hatto fikrlar plyuralizmi qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. V.V. Kompaneyes psixologizmni badiiy asar poetik vositasi sifatida emas, balki badiiy adabiyotning mulki, shu jumladan, muallif psixologiyasining aksi, tasviri sifatida qaraydi<sup>11</sup>. H. Umurov bu adabiy hodisani shunday baholaydi: “Yozuvchi tasavvuridagi qahramonlarning azob va quvonchlari, hayajon va tashvish-kechinmalarini birga tortar ekan, yaratayotgan, uydirma asosiga qurilgan kartinasi ko’z o’ngida ko’rar ekan, u bu holatlar va predmetlarni shunchalik aniq va jonli sezadiki, natijada uni o’z qalbida, ko’z oldida, haqiqiy hayotda yuz berayotgan kechinma va hodisadek qabul qiladi. Shuning natijasi o’laroq ijodiy jarayonning ba’zi “afsona”lari yuzaga chiqadi”<sup>12</sup>. Yan Parandovskiy yozuvchilar hamisha bir sifatleri bilan hammani taajjubga solib kelganini qayd etgan, ya’ni olimning e’tiroficha, ular kundalik turmushda hech narsani tushunmaydilar, ular inson to’g’risida hammani larzaga soluvchi kashfiyotlar qilishga qobil psixolog bo’lsalar-da, hayotda o’zlari ro’para kelgan odamlarning farqiga bormaydilar va hamisha firibgar va ayyor odamlarning makriga uchib, hiyla-nayranglar tuzog’iga ilinib yuradilar. Buning sababi shundaki, ular inson haqidagi bilimlarini o’z yaqinlarining xatti-harakatlari, yuzlaridagi ifodalarni kuzatishdan olmaydilar, balki o’z qalblarida aks etgan inson g’oyasi bilan muloqotdan hosil qiladilar<sup>13</sup>. Olim yozuvchilarning badiiy olami nihoyatda pokiza va samimiy bo’lgani tufayli ular yaratgan obrazlar tiynatida bu aks etishini ta’kidlaganda, ijobiy xarakter-xususiyatga ega personajlarni nazarda tutgan. Olimlarning yondashuvlaridan shu jihat ayonki, badiiy psixologizm turli xalqlar adabiyotida aynan bahs va munozaraga boy bo’lgan hodisa hisoblanadi.

Bobning “Hikoyada badiiy psixologizmning o’ziga xosligi” deb atalgan ikkinchi faslida amerika va o’zbek hikoyachiligida mavjud psixologizmning qahramonlar ruhiyati va ichki dunyosini ochib beruvchi shakllari va usullari tahlil qilingan. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm badiiy obraz bilan bog’liq hodisa bo’lib, u asosan adabiy tur va janrlar kesimida farqlanadi. Shunday ekan,

<sup>8</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 48.

<sup>9</sup> Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя / А.Б. Есин. – М.: Просвещение, 1988. – С.18.

<sup>10</sup> Гинзбург Л.Я. О психологической прозе / Л.Я. Гинзбург. – М., 1971. – С. 286.

<sup>11</sup> Компанеев В.В. Художественный психологизм в советской литературе (1920-е годы) / В.В. Компанеев. – Л., 1980. – С. 12.

<sup>12</sup> Умуров Х. Бадий ижд асослари: дарслик. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – Б. 28.

<sup>13</sup> Парандовский Я. Сўз кимёси. // Жаҳон адиблари адабиёт хақида: (Озод Шарафиддинов таржималари)/ тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М. Шарафутдинова, Ш. Тўйчиева; масъул муҳаррир Р. Қўчқоров. – Т.: “Маънавият”, 2010. – Б. 293.

psixologizmdan foydalanish epik turdagi janrlarda ham farqli xususiyatga ega. Roman psixologik tahlil uchun imkoniyatlari cheksiz janr bo'lsa, hikoya hayotning ma'lum bir qismini aks ettirib, unda badiiy psixologizmdan foydalanish roman va dramaga nisbatan biroz imkoniyati chegaralangandir. Hozirgi o'zbek hikoyalarining strukturasi, mavzu va muammo ko'lami, bayon usullari, qahramonlar mavqei hamda toifasi, muallifning g'oyaviybadiiy niyati talqiniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lib, tasniflangan: 1) lirik hikoyalar; 2) tarixiy hikoyalar; 3) ocherk hikoyalar; 4) ramziy timsollarga asoslangan hikoyalar; 5) real hikoyalar; 6) g'ayritabiiy (noreal) hikoyalar; 7) ertaknamo hikoyalar; 8) fantastik hikoyalar; 9) hajviy hikoyalar; 10) absurd hikoyalar<sup>14</sup>. Tadqiq obyekti sifatida tanlangan hikoyalar ramziy timsollarga asoslangan hikoyalar, g'ayritabiiy (noreal) hikoyalar, hajviy hikoyalarga mansub. Adabiyotshunos S. Kamilova hikoya janri haqida shunday yozadi: "Hikoya – bu kichik epik janr bo'lib, unda abadiy mavzuning ayrim qirralarini yaqqol ko'rsatib bera oladigan hayotiy materialni iloji boricha lo'nda shaklda aks ettiradigan tezis-diskret tafakkur turi namoyon bo'ladi, doim "bir lahzada" qarama-qarshilikni ko'rsata oladi, asarning "muallif-roviy-qahramon" uchligi xarakteri bilan bog'liq o'ziga xos subyektli tashkillanishiga ega va barcha tasviriy vositalarni o'zida jamlagan<sup>15</sup>. Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan ekan, unda inson obrazini har tomonlama mukammal yaratishga qaratiladi. Insonning his-tuyg'ulari, kayfiyati va fikrlari atrofdagi voqelikning o'ziga xos hodisalari sirlarini tushunish istagi, ularga qarama-qarshi bo'lgan choralarni izlash yoki butun hayot tarzini obyektiv elementning namoyon bo'lishiga moslashtirishni tashkil etadi.

Yevropada hikoyalar dastlab ba'zan joy nomlari va boshqa kichik o'zlarishlar bilan gazeta va jurnallarda paydo bo'lib, tez orada koloniyalarda qayta nashr qilindi. Lekin, albatta, ularga ayrim cheklovlar ham qo'yilgan edi. Amerikaning mashhur davlat arbobi, adabiyotda ham o'z o'rniga ega Benjamin Franklin birinchi Amerika hikoyasini 1747-yilda chop etdi, garchi bu hikoya "Yangi dunyo" deb atalmish Amerika mamlakatidan avval Londonda chop etilsa-da<sup>16</sup>. XIX asrda bu janrning nazariyasiga asos solganlar adabiyotshunoslar emas, balki amaliyotchilari edilar. Aksariyat adabiyotshunoslar XIX asrni Amerikada qisqa hikoya janrining shakllangan davri deb bilishadi. Hikoya janrining asoschilari sifatida Edgar Allan Po, Herman Melvil, Nataniyel Gotorn, Frensis Bret Gart, Vashington Irving, Anton Chexov, Genri Djejms, Flanneri O'Konnor, Xulio Kortasar va Yudora Ueltilar hisoblanadi.

Hikoya – bir voqeani bayon qiluvchi, cheklangan miqdordagi personajlardan iborat qisqa asar hisoblanadi. Yana bir janr borki, u novella deb atalib, u hikoyaning barcha xususiyatlariga ega, ammo kichikroq, dinamikroq bo'lgan qisqa hikoyaning bir turi hisoblanadi. Novella so'zi italyanча so'zdan olingan bo'lib, "yangilik" degan ma'noga ega. Rus olimi B.V. Tomashevskiy hikoya janrini jahon adabiy atamasi bo'lmish novellaning sinonimi deb e'tirof

<sup>14</sup> Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. – Фарғона, 2020. – Б.16.

<sup>15</sup> Камиллова С. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривож: филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – Б.16.

<sup>16</sup> Nagel J. The American Short Story Handbook. – New Hampshire: Wiley Blackwel, 2015. – P.13.

etgan<sup>17</sup>. Hotam Umurov “Hikoyaning eng ixcham ko‘rinishi novella deb yuritiladi”<sup>18</sup>, deya ta’kidlaydi. Amerika adabiyotida novellani ko‘pincha haqiqiy milliy janr deb atashadi, uning rivojlanish an‘analari XIX asr davomida taraqqiy etgan. Taassurot va harakat dinamikasi birligi asosida qurilgan kutilmagan yechim bilan tugallangan novellalar V. Irving va E. Po ijodida vujudga kelgan<sup>19</sup>. XX-XXI asr hikoyachiligida personajlarning ichki olamini chuqur va ishonarli ifodalash, voqelik bilan xarakter mantiqining to‘la mutanosibligiga erishish kuzatiladi.

O‘zbek adabiyotida hikoya janri taraqqiyotiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shgan adiblar A. Qodiriy, A. Cho‘lpon A. Qahhor hisoblanishadi. Yuqoridagi adiblar asarlarining barchasida qahramon ruhiyatining tasviri turli yondashuv orqali ifodalangan. So‘z san‘ati tarixida o‘z ovozigacha ega bo‘lgan har qanday yozuvchi inson ruhiyatini badiiy talqin etishning turli usul va vositalarini qo‘llagan yoki kashf etgan.

Dissertatsiyaning **“O. Genri va O‘tkir Hoshimov hikoyalarida psixologizmning ifoda xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobining ilk fasli “O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida psixologik konflikt tasviri” tadqiqiga bag‘ishlangan.

Amerika adabiyotining iste’dodli yozuvchisi, butun jahonga o‘zining takrorlanmas hikoya(novella)lari bilan shuhrat qozongan O. Genri taxallusi bilan ijod qilgan Uilyam Sidni Porter (1862–1910) Amerikada hikoya janrining rivojlanishiga va taraqqiy etishiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shdi. O.Genri kitobxon va mutaxassislar tomonidan kichik epik janr – hikoya ustasi sifatida tan olingan, uning hikoyalari turli zamon va makondagi adabiyotshunos olimlar uchun tadqiqot obyektiga aylangan. Adib ijodini o‘rgangan olimlarning e’tiroficha, O.Genri ijodida AQSH adabiyotining eng og‘ir va murakkab davri – XIX–XX asrlar boshidagi tanqidiy realizm davrining xarakterli hodisalari o‘z aksini topgan. Iste’dodining eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan davri 1900-yillarga to‘g‘ri keladi. Yozuvchi ijodini hikoyalarida ilgari surilgan demokratiya, insonparvarlik, yuksak fuqarolik, badiiy mahorat eng muhim hodisalardan biriga aylantiradi. Qisqa hikoyalar ustasi bo‘lmish O. Genri ushbu janrning chegara va imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. O.Genrining “Afsungarlar tuhfası” hikoyasida nasroniylarning eng sevimli bayrami Rojdestvo arafasida bo‘lib o‘tgan voqea tasvirlanadi.

Asar qahramonlari bo‘lgan yosh kelin-kuyovlar Jim va Della juda kamtarona hayot kechiradilar. Muallif ularning qanday kasb bilan shug‘ullanishi haqida kitobxonga ma’lumot bermaydi. Hikoya ekspozitsiyasi – kvartiraning ichki qismining tavsifi, bayram arafasida Dellaning xatti-harakatidan uning o‘z turmush o‘rtog‘iga Rojdestvo bayramiga munosib sovg‘a berishni xohlayotganini bilib olamiz. U pullarini hisoblaganda, sovg‘aga yetmasligini anglab, kayfiyati tushib ketadi. *One dollar and eighty-seven cents. That was all. And sixty cents of it was in*

---

<sup>17</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/hudozhestvennyye-osobennosti-novelly-o-genri-na-primere-proizvedeniya-dary-volhvov>. [Мурожаат санаси: 24.06.2022]

<sup>18</sup> Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 222.

<sup>19</sup><http://american-lit.niv.ru/american-lit/istoriya-literatury-ssha-5/baldicyn-o-genri-1.htm> [Мурожаат санаси: 05.07.2022]

*pennies. Pennies saved one and two at a time by bulldozing the grocer and the vegetable man and the butcher until one's cheeks burned with the silent imputation of parsimony that such close dealing implied. Three times Della counted it. One dollar and eighty-seven cents. And the next day would be Christmas*<sup>20,21</sup>. Hikoyaning konflikti – aynan asar qahramonlarining qiyin vaziyatlar bilan to‘qnashuvi, ya’ni eng yaqin insoniga sovg‘a uchun pul yetishmasligi. Dellaning turmush o‘rtog‘iga sovg‘a tanlashi orqali Jimning nimani yoqtirishi kitobxonga ayon bo‘ladi. Jimga nima bo‘lganini faqat o‘zlarining eng qimmatli narsalarini qurbon qilish orqali vaziyatdan chiqish yo‘lini topgan qahramonlarning tushuntirishlaridan keyin taxmin qilish mumkin. O.Genrining ushbu hikoyasida psixologik konflikt yuqori darajada beriladiki, hatto kitobxon ham qahramonlar o‘z juftiga nima sovg‘a qilsa, xursand bo‘lishiga variantlar qidiradi.

O‘tkir Hoshimovning “Quyosh tarozisi” nomli hikoyasida Nasibaning dugonasining dabdabali to‘yida Murodjon bilan tanishishi, keyinchalik xuddi shunday to‘y qilish orzusida bo‘lgan o‘ziga to‘q oilaning yakka-yu yagona qizi bo‘lmish Nasibaning orzu-havaslarini tasvirlanadi. Hikoyadagi psixologik konflikt Murodjonning o‘zgarib qolgan holatida teranlashadi: *“Eng yomoni bu emas. Eng yomoni shuki, Murodjon aynidi. Nasiba buni darrov sezdi. To‘ydan keyin ikki hafta o‘tmay, navbatchi edim, deb kech keldi. Keyin haftada ikki martadan «navbatchilik» qiladigan bo‘ldi. Bora-bora kunora yarim kecha qilib keladigan odat chiqardi. Nasiba gapirsa, teskari qaraydi. “Ishim ko‘p, nima qilay?” – deydi. Avvaliga Nasiba to‘y tashvishlari bilan charchagandir, deb o‘ylagandi. Yo‘q, bu yerda bir sir bor*”<sup>22</sup>. Ichki konflikt iskanjasida qolgan Murodjonning murakkab his-tuyg‘ularini muallif sir saqlaydi. Nihoyat kalavanning uchi topilganday, hikoya so‘nggida Murodjon jasur o‘zbek o‘g‘loni, vafodor yor ekani o‘z isbotini topadi. Asarda o‘z ayolining orzu-havaslarini uchun qiyinchilikka tayyor bo‘lgan o‘zbek yigitining kechmishi tasvirlanadi. Chunki yigitning ayolidan yashirin tarzda qarzlarni uzayotgani va bularning barchasi sevgisi yo‘lida qilingan sa’y-harakatlar ekanligiga amin bo‘lamiz. Hikoyada bosh qahramonlar qalbidagi ichki ziddiyat bir-birini shu qadar kuchaytiradiki, natijada Nasiba turli gumonlar iskanjasida o‘rtansa, Murodjon ayolidan qilayotgan ishlarini sir tutishga majbur bo‘ladi, chunki badavlat oilada tarbiyalangan ayolining istaklarini amalga oshirish uchun o‘zini o‘qqa-cho‘qqa uradi. Ushbu asarda psixologik konflikt yetakchi rol o‘ynaydi. Tuyg‘ular kolliziyasi, kechinmalar ifodasi qahramonlar psixologiyasini yanada tiniq, realistik tasvirlashga xizmat qiladi.

Yuqorida tahlil qilingan hikoyalarda yozuvchilar uslubidagi mushtaraklik shundaki, psixologik konflikt aynan ijtimoiy konflikt negizida rivojlanadi. Vaholanki, qahramonlar jamiyatdagi holatlardan norizo emas, ammo ularni shu

<sup>20</sup> [https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource\\_files/1-the\\_gift\\_of\\_the\\_magi\\_0.pdf](https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource_files/1-the_gift_of_the_magi_0.pdf) – P2

<sup>21</sup> Bir dollaru sakson yetti sent. Bor-yo‘g‘i shu edi. Ulardan oltmish senti bir sentlik tangachalar. Ana shu chaqalarning har biri uchun baqqol, rezavorfurush, qassob bilan shu qadar savdolashishga to‘g‘ri keldiki, bu tariqa ziqnalik tufayli tug‘ilgan so‘zsiz norozilikdan quloqlarigacha qizarib ketardi. Della uch marta sanab ko‘rdi. Bir dollaru sakson yetti sent. Ertaga esa Rojdestvo. // Генри О. Афсунгарлар совғаси /Рус тилидан О.Исмоилов таржимаси. – Т.: Адабиёт учкунлари, 2018. – Б. 8.

<sup>22</sup> Генри О. Афсунгарлар совғаси /Рус тилидан О.Исмоилов таржимаси. – Т.: Адабиёт учкунлари, 2018. – Б.177.

kuyga solgan, yetishmovchilik azobiga giriftor qilgan muhit “qurbon”ga aylanishadi va ular ichdan iztirob chekib, bu iztiroblarni hatto turmush o‘rtoqlariga ham bildirmaydilar. Har ikki hikoyada ayol ruhiyati tasviriga keng o‘rin ajratilgan. Della va Nasiba ijtimoiy maqomi nuqtai nazardan farqlansa-da, ular oilasini mustahkamlash, turmush o‘rtoqlarining qalbini asrashga intiladilar.

“O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida roviylik” nomli ikkinchi faslda auktorial va aktorial rivoya usullari orqali qahramon ruhiy olamini ifodalashda adiblar mahoratidagi mushtarak va o‘ziga xos xususiyatlar tahlilga tortilgan. O. Genrining aksariyat hikoyalarida roviyni kuzatish mumkin. O. Genrining hikoya usullaridan foydalanishining o‘z uslubi mavjud. Uning “O‘n dollarlikning hikoyasi”(The Tale of a Tainted Tenner)da o‘n dollarlik banknot birinchi shaxs nomidan gapiradi: *“I am a ten dollar Treasury note, series of 1901. You may have seen once in a friend’s hand. On my face, in the centre, is a picture of the bison miscalled a buffalo by fifty or sixty millions of Americans”*<sup>23, 24</sup>. Ushbu hikoyada o‘n dollarlikning sarguzashtlari, besh va yigirma dollarlik bilan suhbat majoziy usulda aks ettirilgan. Muallif hikoyadagi voqelik asosida Amerikaning hayot tarzidan qisqagina tafsilotlarni hazil-mutoyiba, kesatiq bilan yoritadi. O‘n dollarlik uzr so‘rash bilan sarguzashtlarini boshlaydi: *“Hikoyamni biroz ayqash-uyqash gapirib beryapman, men avf etgaysiz. Avf etasizmi? Tashakkur, kechirishingizni bilardim. Xatto nomsiz oddiy kupyura ham ana shunday xushomadgo‘ylik qiladi, ko‘ngilni olishga tirishadi, to‘g‘rimi? Adib voqelik tasvirida o‘tkir satiradan foydalanadi, kichik sentlar kambag‘allar uchun sadaqa sifatida berilsa, yirik pullar hatto cherkov tomonidan ham rad etiladi, chunki bu pullardan hazar qilishadi: “Bilasizmi, biz isqirt pullar o‘z nutqimizga jilo berish imkoniyatlaridan batamom mahrum etilganmiz. Tug‘ilganimdan buyon meni uzoq muddat saqlab yurgan biron kimsaga duch kelmadim. Ularning barchasi meni qo‘llarida ushlagan cha eng yaqin oziq-ovqat peshtaxtalariga yugurishardi”*<sup>25</sup>. O‘n dollarlik bir hamyondan boshqasiga nima maqsadda o‘tganini so‘zlab berishi natijasida hammasiga oydinlik kiritiladi. Qimorxonaning xo‘jayini Qariya Jek cherkovga ellik ming ehson qilmoqchi bo‘lganda, cherkov qabul qilmaydi. Bu yigirmatalik bilan suhbatda ayonlashadi. Bu pullarning qay maqsadlarda ishlatishayotganini o‘n dollarlikning “Ba’zida viskiga bo‘kib qolardim, martini, manxetten ustimga to‘kilaverib ko‘rinmay qolardim”, deya zorlanishidan ziyrak kitobxon anglaydi. O‘n dollarlik – roviy obrazi muallifga fikr va hissiyotlarini samarali ifoda etishga imkon beradi, qahramonga o‘z-o‘zini kuzatish hamda voqealarni tasvirlashning turli shakllariga yo‘l ochadi. Xullas, birgina o‘n dollarlik timsolida undan foydalangan odamlarning fe‘l-atvori, turmush tarzi haqida muayyan ma’lumotlar yaxlitlik kasb etadi. Hikoya “Iflos pullar to‘g‘risidagi safsatalar jonimdan to‘ydirdi” jumlasini bilan nihoyalanadi.

---

<sup>23</sup>Henry O. The complete works of O. Henry. – Volume II. – New York: Garden city. – P. 1474.

<sup>24</sup>“Men – 1901-yili chiqarilgan o‘n dollarlik qog‘oz pulman. Men kabilarni qaysidir tanishingizning qo‘lida ko‘rgan bo‘lishingiz kerak. Old tomonimda besh yoki olti million amerikaliklar tomonidan buyvol deb ataluvchi amerika bizoni tasvirlangan”//Генри О. Шафтоли ва пўртахол. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.35.

<sup>25</sup>Генри О. Шафтоли ва пўртахол. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 36.

O‘. Hoshimovning “Musofir bo‘limguncha” nomli hikoyasida ham hikoyachi kim ekanligiga muallif ishora qiladi. Hikoya birinchi shaxs nutqi bilan boshlanadi: “...*Omadi chopib desammikin, palakat bosib desammikin, chet elga chiqadigan bo‘lib qoldim. Tag‘in qayoqqa deng? Kapstranga! Eskilar “Musofir bo‘limguncha musulmon bo‘lmaysan” deb bejiz aytmaganini o‘shanda tushundim*”<sup>26</sup>. Kitobxon hikoyachini voqea davomidagi dialogdan so‘ng biladi: “– *Araq bormi? – Bor. Ikki shisha. Hamma olgani uchun men ham... – Bu yoqqa! – Hushyor chegarachi iyagi bilan imo qildi. Chamadoningni ko‘tar! (Tamom bo‘lding, mulla Alijon!)*”<sup>27</sup>. Ko‘p hollarda hikoyachi kim ekanligi emas, voqeaning ishonarli tasviri o‘quvchini o‘ziga rom etadi. Hikoyada ikki xil tartib-intizom, rus va ingliz diyorida insonga munosabatning ayri-ayri ekani o‘tkir satira orqali ifodalangan. Hujjatlarning rasmiylashtirilishi, hatto magazinda ham pasport so‘ralishi, navbatda turib, savdo qilish, rus millatidagi styuardessadan choy so‘rab, ellik ming jarima to‘lash holatlariga inglizlarning erkin qoidalari zid qo‘yiladi:

– *Missis! Iloji bo‘lsa choy... Sovqotib ketdim... Pliz...*

– *Nima? – Styuardessaning qoshi chimirildi.*

– *Kim “pliz?”*

– *Missis, – dedim yalinib. – Iloji bo‘lsa bitta choy. Pliz... Marhamat...*

*Styuardessa o‘shib ketgan soqolimga, boshimdagi do‘ppimga tikilib turdi-da, ajib bir tabassum hadya etdi.*

– *Balkim kofe ham so‘rarsiz! Tasmani taqing, grajdanin!*<sup>28</sup>

Xorij safari tufayli roviy – ingliz tili o‘qituvchisi ishdan bo‘shatiladi. Inson qadr-qimmatining poymol etilishini yozuvchi ta’sirli ifodalaganki, asarda aks ettirilgan tuzumga nisbatan kitobxonda nafrat paydo bo‘ladi. Qahramonning istehzoli fikri bilan asar yakunlanadi: “*Rostini aytsam, direktor sho‘rlikka achinganimdan yig‘lab yubordim. Hozir ota kasbini qilyapman – sandiqchiman. Topish-tutishim yomon emas. Oyiga uchta sandiq yasasam, avvalgi maoshimdan to‘rt hissa ko‘p pul bo‘larkan... O‘sha styuardessani ko‘rib qolsam, yana bir marta “pli-i-iz!” deb qo‘ymoqchiman! Shoyad ishlarim yanayam yurishib ketsa!*”<sup>29</sup> O‘sha davr jamiyatida o‘qituvchining daromadiga ham ijodkor shama qiladi. Hikoyada roviy ichki olami, soddaligi, samimiyligi va o‘ta yuvoshligi Sasha obrazi orqali yanada teranroq ochiladi.

Adibning mahorati shundaki, bosh qahramon psixologizmini ifodalashda ichki monologdan unumli foydalangan. 1987-yil hikoya yozilgan zamon nuqtai nazardan hikoya mazmuniga yondashsak, o‘sha davr ijtimoiy holati, rus xalqining o‘zbek millatiga munosabati ochiq-oshkora aks ettirilgan. Safarga yo‘l olayotgan qahramon safar oldi jiddiy tekshiruvdan o‘tkaziladi, ammo inglizlar yurtida hech kimning uning hujjatlari bilan ishi bo‘lmaydi. Roviylar bu holatni shunday bayon etadi: “*Avval o‘n beshtami, yigirmatami suratimni olishdi. Keyin yigirmatami-yigirma beshtami qog‘ozni to‘lidirdim. Kimsan? Nimasan? Qayerda tug‘ilgansan? Qachon? Otang kim? Onang-chi? Ular qayerda, qanday ish qilgan? Ishlasa,*

<sup>26</sup> Генри О. Шафтоли ва пўртахол. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 36.

<sup>27</sup> Генри О. Шафтоли ва пўртахол. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 36.

<sup>28</sup> Hoshimov O‘. “Ajdar”ning tavgasi: hajviy qissa va hikoyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016 – B. 257.

<sup>29</sup> Hoshimov O‘. “Ajdar”ning tavgasi: hajviy qissa va hikoyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016 – B. 258.

necha yil ishlagan? Mabodo otang o'lgan bo'lsa, qachon o'lgan-u, nega o'lgan, qayerga ko'milgan? Onang-chi? Avlod-ajdodingda qamalganlar yoki chet elda yashaydiganlar bormi?"<sup>30</sup> Bunday rasmiyatchilik, hatto vafot etganlar haqidagi ma'lumotlar roviyning achchiq kesatig'iga sabab bo'ladi: "Sizlarni bilmadim-u, shaxsan men o'ylab qaragam, hammasi jo'yali savollar. Rost-da! Allaqachon bandalikni bajo keltirgan otam rahmatlikning katta bobosi qaysidir xorijiy davlatda hamon hassa tayanib yurgan bo'lsa-chi?"<sup>31</sup> Bu holat kitobxon kulgisini uyg'otadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi tasvir vositalari va poetik usullar**" deb nomlangan. "O. Genri va O'. Hoshimov hikoyalari qahramonlarining qalb, ruh, ong kechinmalarining psixologik talqini" nomli birinchi faslida ong va ong osti bilan bog'liq qahramonlarning ichki kechinmalari, ichki monolog, tush, portret, qahramon (personaj) kayfiyatiga mushtarak peyzaj hamda qahramon kechinma va ruhiy holatlariga qarama-qarshi bo'lgan manzaralar tasvirlari tahlil qilingan. Haqiqiy ijodkor asarlarida epik tasvir bilan his-tuyg'ular tasviri o'zaro uyg'unlashadi. O.Genrining "So'nggi yaproq" asari ham kichik hajmdagi hikoya bo'lishiga qaramasdan juda katta mazmun ifodalashi bilan kitobxonlar orasida shuhrat qozongan. Asar syujetidagi asosiy g'oya yashashga bo'lgan muhabbat barobarida insonni asrab qolish, yashashga kuch topishga undash kabi yuksak tuyg'ular tarannumi o'z ifodasini topgan. Hikoyada yozuvchining kasallikdan sillasi qurib yotgan asar qahramoni bo'lmish Joanning devorga chirmashib o'sgan pechak guli barglari bilan o'z hayotini qiyoslashini guvohi bo'lish mumkin. "*Leaves, On the ivy vine. When the last one falls, I must go, too. I have known that foe three days. Didn't the doctor tell you?*"<sup>32, 33</sup>. Hayotdan umidini uzgan qahramon ruhiyati ijodkor tomonidan juda ta'sirli ifoda etilgan. Barglar tushishini birma-bir sanab, uni o'limi yaqinligiga yo'ygan Joan kundan kun ahvoli og'irlashib borgani va o'zini shunga ishontirgani ushbu misralarda aks etadi: "*I'm tired of thinking. I want to turn loose my hold on everything, and go sailing down, down, just like one of those poor, tired leaves*"<sup>34, 35</sup>. Tabiat injiqliklariga dosh berib, qadrdon novdasini tark etishni xohlamagan barg misoli Joanna ham o'zida yashashga kuch topa oldi. Asar so'nggida Joannani hayotga qaytargan pechakgul bargi haqiqiy bo'lmay, rassom Bermanning o'z hayotini tikib yaratgan "shoh asar" ekanligi aniq bo'ladi. Hikoyada har bir inson o'z orzusiga yetishi uchun hayotni sevishi, yaxshilikka intilib yashashi kerakligi alohida e'tirof etiladi.

Qahramon ruhiyatining nozikliklarini yorqin ifoda etish mahoratiga ega yozuvchi O'tkir Hoshimov hikoyalarida ham badiiy tasvir vositalaridan kerakli va unumli ravishda foydalanganini kuzatish mumkin. O'tkir Hoshimovning

<sup>30</sup> Hoshimov O'. "Ajdar"ning tavbasi: hajviy qissa va hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2016 – B. 245.

<sup>31</sup> Hoshimov O'. "Ajdar"ning tavbasi: hajviy qissa va hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2016 – B. 246.

<sup>32</sup> Henry O. The complete works. –New York: Garden city, V-1, 1953. – P.1457.

<sup>33</sup> "Barglar. Pechakgul yaproqlari. Ularning so'nggisi to'kilganda, men ham hayot bilan vidolashaman. Men buni uch kundan beri sezib kelyarman. Shifokor senga hech narsa demadimi?"// Генри О. Ишбилармон кишилар./Сўнги япроқ. – Т.: Янги аср авлоди. – Б. 48.

<sup>34</sup> Henry O. The complete works. –New York: Garden city, V-1, 1953. – P.1457.

<sup>35</sup> "O'ylayverib ham charchadim. Meni bu dunyoga bog'lab turgan barcha rishtalardan xalos bo'lib, o'sha hayotdan to'ygan bechora yaproqlar misoli havoda uchgan cha g'oyib bo'lishni xohlayman". //Генри О. Ишбилармон кишилар./Сўнги япроқ. – Т.: Янги аср авлоди. – Б.49.

“Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida ikkinchi jahon urushining insoniyat hayoti, millatlar ruhiyatiga ta’siri masalalari aks etadi. Qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlashmalar yaratadi. Asar ekspozitsion peyzaj bilan boshlanadi: *“Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustida yopilgan, shinni dog‘i qotgan quruq dasturxon ham, hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi”*<sup>36</sup>. Ushbu parchada qahramonlarni tushkunlik iskanjasida tasvirlashda, personajlar ruhiy holatining beqarorligini ko‘rsatishda adib interyerdan foydalangan. Muallif asar syujetiga yoyilib ketgan fojeaviy ruhni yuqori bosimda tutib turadi. Qahramon ruhiyatiga monand ravishda peyzaj tasviri keltiriladi: *“Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchagida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitmas edi”*<sup>37</sup>. Hikoyada tabiat tasviri qahramon ruhiy olamini ochib beruvchi omil sifatida ham qo‘llanilgan. Tabiat tasvirlari ichki kechinmalarni ko‘rsatishda badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotshunos H. Umurov e’tirof etganidek, “Adabiyotda tabiat (peyzaj) ham, muhit, sharoit, predmetlar inson mohiyatini ochishga bo‘ysundirilib, “insoniylik” xususiyatini kasb etadi, asosan odam va uning kechinmalari hukmronlik qiladi”<sup>38</sup>. Haqiqatan ham, peyzajning berilishi kitobxon ko‘z o‘ngida jonli gavdalanadi va o‘quvchi qalbini larzaga soladi.

“O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida kutilmaganlik effekti va yechim” nomli yakuniy faslda hikoyalardagi kutilmaganlik effekti va sirli yechim muammolari izohlangan. O. Genri hikoyalari aynan hayratlanarli yakunlari bilan mashhur bo‘lib, bu adib hikoyalarning umumiy xususiyatidir. Yozuvchi hikoyalarning o‘ziga xos syujetlari mavjud bo‘lib, odatda bu jihat hatto ba‘zan o‘quvchi ham tasavvur qila olmaydigan tarzda tugaydi. O‘zining satirik uslubi, o‘ziga xos hikoya qilish mahorati, kutilmagan va oqilona yakuni tufayli O. Genri yuksak obro‘-e’tibor qozondi. Uning ajoyib yozish texnikasi orqali voqelikning istehzoli tasviri va inson tabiatining nozik qirralari yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. O. Genri uslubidagi yakun keyingi realistik adabiyotning plyuralistik rivojlanishini ochib berdi. Uning asarlaridagi keskin burilish nuqtasining o‘ta tanqidiy yakunlanishi ham jahon adabiyotining jamiyatga munosabatining amaliy ahamiyatini oshiradi. Xuddi shunday holatni uning “Mo‘jizaviy kulchalar” nomli hikoyasida ham kuzatish mumkin. Kichik bir do‘konning egasi bo‘lgan Marta Michem xonim o‘z baxtini topish ilinjida do‘koniga tez-tez kirib, eski kulchalar xarid qiladigan rassomga mehribonchilik ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Non sotib olishga puli yetmasligini taxmin qilib, kulchalari orasiga saryog‘ surib qo‘yib, minnatdorchilik evaziga rassomdan do‘q-po‘pisa va haqorat eshitganida hayratdan qotib qoladi. Hikoyaning tuguni ham voqeaning aynan shu joyida tasvirlanadi.

<sup>36</sup> Хошимов Ў. Ўзбеклар. – Т.: Ф.Фуллом, 2011. – Б. 11.

<sup>37</sup> Хошимов Ў. Ўзбеклар. – Т.: Ф.Фуллом, 2011. – Б. 15.

<sup>38</sup> Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – Б. 6.

*"You haf shpoilt me," he cried, his blue eyes blazing behind his spectacles. "I vill tell you. You vas von meddlingsome old cat"*<sup>39, 40</sup> Bunday haqoratni eshitgan Marta xonim boshidan muzdek suv quyilgandek jim bo'lib qoladi. Voqeaning yechimi qanday kecharkin deb turli taxminlar qilayotgan o'quvchi uchun rassomning do'sti bergan izohlar ayni muddao bo'ladi. O'rtog'i u bilan birga qurilish idorasida ishlashi, uch oy bosh ko'tarmay bir bino loyihasining chizmasi ustida ishlayotganini aytib beradi. Chizma avval qalam bilan chizilishi, so'ngra qotgan non bilan o'chirilishini aytadi. *"Blumberger's been buying the bread here. Well, today – well, you know, ma'am, that butter isn't well, Blumberger's plan isn't good for anything now except to cut up into railroad sandwiches"*<sup>41, 42</sup>. Bu gaplardan so'ng Marta xonim nima ish qilib qo'yganini tushunib yetadi. Hikoya bu bilan tugamaydi, balki muallif endi Marta xonimning ahvoli nima kecharkin?– degan kitobxonga alohida javob beradi: *"Miss Martha went into the back room. She took off the blue-dotted silk waist and put on the old brown serge she used to wear. Then she poured the quince seed and borax mixture out of the window into the ash can"*<sup>43, 44</sup>. Marta xonimning orzulari chippakka chiqqanini, yaxshilik qilmoqchi bo'lib, aksincha, yomonlik qilib qo'yganini anglagan kitobxonning unga nisbatan achinishi tabiiy. Hikoyadagi kutilmagan yakun chizmadagi nonni o'chirg'ich uchun ishlatilishga olinishi sababi bo'lsa, muallifning Marta xonimning keyingi holatini tasvirlashi esa voqeaga yanada estetik joziba beradi. Muallif Marta xonimning ruhiyatiga keskin ta'sir ko'rsatgan voqea uning tuyg'ularini chilparchin qilganini ta'kidlamogchi bo'lgan. O. Genri hikoyalarining ayol personajlari o'z orzulari uchun kurashgan, halol mehnat qilib, yaxshi hayot uchun intilgan ayollardir. Bu holatni O'tkir Hoshimov hikoyalarida ham kuzatish mumkin. Ularda ayol taqdiri va qismati, o'tmish va bugungi kundagi ayollar duch kelayotgan muammolar kelajakka ishonch ruhi bilan bevosita bog'liqlikda tasvirlanmoqda. Yozuvchining "Umr savdosi" nomli hikoyasi aynan ana shunday mavzuda yaratilgan asarlardandir. Bu hikoyada barcha o'zbek qizlaridek iffatli, hayoli, orzulari ummon bo'lgan asar qahramoni Xurshida ertaklardagi shahzodadek uning hayotiga kirib kelgan Anvarga ishonib, aldangan ayol obrazidir. Tug'ilgan kunida tanishib, o'zini aspirantman deb tanishtirgan Anvar aslida suratkash ekani, shu tariqa juda ko'p qizlarni aldab, laqqa tushirgani asar so'nggida oshkor bo'ladi. Anvar Xurshidani aldab, komandirovkaga ketdim, deb chiqib ketganidan so'ng bola yetaklab kelgan ayol o'zini Anvarning xotini ekanini aytganida, Xurshida o'zini qo'yarga joy topa olmadi. Eng achinarlisi, u ayoldan tashqari yana boshqa xotini bo'lganini eshitgach, chidab turolmadi. Sal bo'lsa-da, qilmishidan uyalar

<sup>39</sup> Henry O. The complete works. – New York: Garden city, V–2, 1953. – P. 827.

<sup>40</sup> "Men hammasini, hammasini aytaman! Siz surbet, qari mushuksiz!" //Генри О. Шафтоли ва пўртахол. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 67.

<sup>41</sup> Henry O. The complete works. – New York: Garden city, V–2, 1953. – P. 827.

<sup>42</sup> "Blyumberger nonni sizdan sotib olardi. Bugun esa... Bilasizmi, xonim, sizning sariyog'ingiz... u, bilasizmi... Xullas, Blyumbergerning chizmasi endi faqat buterbrodga yaraydi". //Генри О. Шафтоли ва пўртахол. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 68.

<sup>43</sup> Henry O. The complete works. – New York: Garden city, V–2, 1953. – P. 827.

<sup>44</sup> "Marta xonim do'kon ortidagi xonaga kirib ketdi. U yerda xonim kichik xol-xol havorang gulli shoyi ko'ylagini yechib, avvalgi jigarrang paxta ko'ylagini kiydi. So'ng behi urug'i qo'shilgan surtmasini olib, uni deraza ortidagi axlat qutisiga ag'dardi". //Генри О. Шафтоли ва пўртахол. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 68.

degan niyatda Anvarning o‘zidan so‘raganida, tap tortmasdan bergan javobi kitobxonning Anvarga nisbatan nafratini qo‘zg‘aydi. “– Nega meni aldadingiz? – dedi Xurshida alamdanda to‘lg‘anib. – Qiziq ekansiz, to‘yni tezlashtiring, degan menmi, sizmi? Xurshida alam ichida uni tarsakilab yubordi. Anvar bir rangi o‘chdi-yu, indamadi. – Bo‘ldimi? – dedi kulishga harakat qilib. – Alamingizdan chiqdingizmi endi? Xurshida bu odam bilan o‘rtalarida kattakon jarlik paydo bo‘lganini his qildi. Bu jarlik ikkovlarini ikki sohilga uloqtirib tashladi. Kim bilsin, balki ilgari ham jarlik bo‘lgandir-u Xurshida ko‘rlik qilib, narigi sohilga qadam bosgandir”<sup>45</sup>. Hikoyaning dastlabki yechimi shu jumlar bilan tugaydi. Lekin muallif bu bilan cheklanib qolmaydi. Xurshidaning onasi qizi uchun adashgani, odamlarga ishonchi qolmaganini aytib, alam bilan yozg‘iradi. Uning onasi Qumri xolaning ovsini bilan suhbat hikoyaga yakun yasaydi. “– To‘lqinjonning to‘yi yaqinlashib qoldi, ovsinjon! Shunaqa-yu, ko‘nglim g‘ashroq. Kelinning akasi icharkan. Otasiniyam og‘zi shaloqroq, deyishadi. – Sinang, o‘rgilay, obdon sinang. Qush uyasida ko‘rganini qiladi. Keyin kuyib, alangasiga isinib o‘tirmang, ovsinposhsha!”<sup>46</sup> Muallif shu tariqa hikoyaga yakun yasaydi. Hikoya so‘nggida Qumri xola bir marta aldanganiga insonlarga nisbatan ishonchi qolmagani uchun ham o‘g‘lining turmush qurishida hali ham gumonda ekani yozuvchi tomonidan ta’kidlanadi.

O. Genrining uslubi rang-barang bo‘lishiga qaramasdan, murakkab va falsafiydir. U o‘quvchini aldashga shu qadar mohirki, aksariyat hollarda muallif uni qayerga olib borayotganini – O. Genri bilan qanday adabiy parodiya, istehzo va shakl o‘yinlari muhitiga yetaklayotganini ham sezmaydi. O. Genrining hikoyalaridan yana biri “G‘ayrioddiy hikoya” deb nomlanib, unda Ostin degan joyning shimoliy qismidagi uch kishidan iborat bo‘lgan Smozerlar oilasida sodir bo‘lgan voqea hikoya qilinadi. Hikoyadagi konflikt bir kuni kechki ovqatdan so‘ng yo‘tali tutib qolgan 5 yoshli qizga dori keltirish uchun shaharchaga otlangan otasi Jon Smozerning chiqib ketib, qaytmaganidan boshlanadi. Jon shu chiqib ketgancha bedarak bo‘lib ketgandan so‘ng, qizi balog‘at yoshiga yetadi, ayoli ikkinchi marta turmush quradi va boshqa joyga ko‘chib ketishadi. Vaqtlar o‘tib Smozerlarning qizi o‘z oilasi bilan ota uyda istiqomat qilishadi. Taqdir yana qaytarilib, uning qizi ham yo‘talib qoladi. Yigirma yil avval aynan o‘sha kuni o‘zining ham yo‘tali tutgan va dadasi chiqib ketib, nom-nishonsiz kelmaganini eslab, turmush o‘rtog‘ini dori olib kelishga chiqishiga qarshilik qiladi. Hikoyadagi ajabtovur voqea birdan sodir bo‘ladi. Buni yozuvchi shu tarzda ta’riflaydi: “Eshik ochildi-yu, oqarib ketgan sochlari yelkasigacha o‘sib tushgan, munkillab qolgan qari bir chol uyga kirib keldi. Oyi, dada, mana, mening buvamlar! – deb yubordi shunda kichkina Pensi xursand bolib. Ziyrak qizaloq buvasini hayratdan qotib turgan ota-onasidan ham burun tanib bo‘lgandi”. Shundan so‘ng keksa chol cho‘ntagidan dorini olib, qizaloqqa ichiradi. Hikoyaning yechimi ham cholning gaplari bilan nihoyalaniadi: “– Ming bor uzr, – dedi keksa Jon Smozers, – ozgina kechikdim, men yo‘lda mashina kutaman, deb biroz qolib ketdim”<sup>47</sup>.

<sup>45</sup> Хошимов Ў. Ҳикоялар. – Т.: Ўқитувчи, 2017. – Б. 81.

<sup>46</sup> Хошимов Ў. Ҳикоялар. – Т.: Ўқитувчи, 2017. – Б. 81.

<sup>47</sup> Genri O. Ishbilarmon kishilar: hikoyalar. – Т.: Yangi asr avlodi, 2018. – Б. 57.

O.Genri ushbu hikoyasi bilan mahalliy transport tizimining samarasizligini o‘tkir hajv ostiga oladi. Favquloddagi holatda dori qidirib chiqilganda transport yo‘qligi bois yillar o‘tib ketishini o‘quvchi ko‘z oldida tasvirlaydi. Hikoyaning konfliktida Jon Smozerni g‘oyib bo‘lganidan so‘ng o‘quvchida turli gumonlar tug‘iladi, hatto shuncha yil o‘tib ketgandan keyin Jonni qaytishining sababi ham kitobxonda shubha tug‘dirishi tabiiy hol. Chunki Jonning dabdurustdan aynan g‘oyib bo‘lgan kuni uyiga qaytishi g‘ayrioddiy holatda ro‘y beradi, ya’ni u qo‘lida dori bilan kirib keladi. Mazkur hikoyada psixologik konflikt Jon Smozersning qizi qalbida kechadi. U qizi Pensi betob bo‘lsa-da, erini dori uchun yuborishga yuragi betlamaydi, chunki otasidan ko‘p yillar oldin ro‘y bergan shu taxlit voqea tufayli ayrilib qolgan edi. Mazkur hikoya sarlavhasida g‘ayrioddiylik haqida ishora beriladi, ammo voqealar tizgini badiiy zamon chegarasini buzib tashlaydi. Kutilmagan yechim bilan hikoya nihoyalanaadi.

Har ikki adibning qahramonlari bir-biriga o‘xshash bo‘lishiga qaramay, har bir hikoyada ularning o‘ziga xosligi ochib beriladi. O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalari syujetining xususiyatlarini o‘rganib chiqish davomida ularda kutilmaganlik effekti muhim unsurlardan biri ekanligi aniqlandi. Yozuvchining ayrim hikoyalari kitobxonni hayratga solar darajada yakun topadi. Aksariyat kitobxonlar asar yakuni ular o‘ylagandek bo‘lmaganidan hayratlanishadi. To‘satdan nimadir sodir bo‘lishi, kutilmagan yakun ko‘p o‘quvchilarni asarga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida ham aynan shunday holatni kuzatamiz. Ularning hikoyalarida qahramonlarning o‘ylari, fikrlari va harakatlari mantiqiy izchillikda tasvirlanadi va kutilmagan yakun bilan tugallanadi.

O. Genri va O‘. Hoshimov qahramonlari ma’naviy olamidagi mantiqiy-tadrijiy taraqqiyotni psixologik tasvir shakllari orqali ko‘rsatishda psixologik determinizm asosida ish ko‘rishadi, ya’ni personajlar ruhiyati voqealar rivoji mobaynida falsafiy teranlik kasb etadi, o‘z-o‘zini taftish qiladi, qahramonlar ijtimoiy, ma’naviy muammolar yechimini izlashda, ichki olam ovozig a quloq tutishadi.

## XULOSA

1. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizmning qo‘llanilish usullari ko‘p yillik tarixga ega. Chunki bu jarayon olam va odam munosabatlarini tarannum etib, obrazlarni kitobxonga yanada yaqqol tanishtiradi. Har bir yozuvchi ruhshunoslik xususiyatiga ega bo‘lib, asar qahramonlarining ruhiy holatini tasvirlashda o‘z usul va vositalari mavjud. Badiiy psixologizm yozuvchining ruhiy tahlillari natijasida yuzaga keladi. Ayrim badiiy asarlar hajman qisqa bo‘lsa-da, qahramonlar psixologiyasi yorqin ifoda etilgan janrlar ham mavjud. Hikoya aynan ana shunday janrlar sirasiga kiradi. Hikoyalarda qahramon psixologizmi turli detallar orqali qisqa, lekin teran namoyon bo‘ladi.

2. Badiiy asarda “psixologizm mexanizmi” yozuvchi qahramonning ruhiy kechinmalarini ifoda etishni boshlashida vujudga keladi. Badiiy psixologizmning

tadrijiy takomili voqealar rivoji mobaynida qahramon ruhiy olami murakkabliklarining barcha qirralarini ifodalash natijasida o‘shib boradi.

3. G‘arb va Sharq adabiyotida qahramon ruhiyatining badiiy tasviri muhim ahamiyat kasb etadi va asar badiiy psixologizmini yaratishda mushtarak mezonlar uchraydi. Garchi hikoya janri qahramon ruhiyatini ochib berishga qulay imkoniyatlarga ega janr hisoblanmasa-da, muallif qahramonining qalb kechinmalarini ta’sirli aks ettirishda poetik vositalardan mahorat bilan foydalanishi mumkin. Bu, albatta, yozuvchining uslubi va talantiga bog‘liq.

4. G‘arb va Sharq hikoya janrining rivojlanishida, qahramonlar quvonchi-yu iztiroblarini kitobxonga jonli tarzda ifodalashda Amerika hikoyanavisi O. Genri va o‘zbek yozuvchisi O‘. Hoshimov hikoyalari alohida e’tirofga egaki, ularning qahramonlari millat va elat tanlamaydi. Ularning hikoyalarida qo‘llanilgan poetik vositalar yozuvchi mahoratini, uslubiy o‘ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Badiiy asarda qahramon psixologiyasi ko‘p hollarda ikki shaklda – muallif tomonidan qahramon ruhiyati ochib berilsa, bevosita; qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari orqali ifoda etilsa, bilvosita tasvirlanadi. Shuningdek, qahramon psixologiyasi badiiy portret, dialog, monolog, tush, peyzaj, badiiy detal, hissiy harakatlar (mimika va pantomimika), nutqiy xarakteristika (roviy), gallyutsinatsiya kabi poetik vositalar yordamida ifoda etiladi.

6. Badiiy asar voqeasi roviy tomonidan bayon qilinsa, muallifning epik xolisligi va barcha narsalarni bilish illyuziyasi yo‘qolib, kitobxonni roviy personaj va voqealarga yaqinlashtiradi. Roviylar muallifning vakili sifatida xizmat qiladi. Hikoyachi o‘zi boshidan kechirayotgandek qahramonlar qayg‘usiga va quvonchiga sherik bo‘lgani uchun ham kitobxonga qadrdon bo‘lib qoladi. Roviylar ruhiyati tadqiqi adabiyotshunoslikda o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolar sirasiga kiradi.

7. Portret, peyzaj tasvirining psixologik funksiyasi personajlar qalbining ichki xarakterini aniqlashda yordam beradi. O‘quvchi ko‘z o‘ngida jonli qahramon gavdalanadi. Ba’zan qahramonning chekkan azob-uqubatlari, qo‘rquv va iztiroblari tashqi portretga aks ettirilsa, ayrim hollarda tashqi eskizlardan tashqari qahramon ichki dunyosi, o‘y-kechinmalarida hayotining muammoli va quvonchli damlari tasvirlanishi mumkin.

8. Amerika adabiyotida hikoya janri rivojiga ulkan hissasini qo‘shgan O. Genri va o‘zbek xalqining sevimli yozuvchisi O‘. Hoshimov hikoyalarida ijtimoiy muammolarning inson ruhiyatiga bevosita ta’siri badiiy-psixologik nuqtai nazaridan mukammal aks ettirilgan. O. Genri adabiyotga takrorlanmas hazil va kinoya ustasi sifatida kirib kelib, uning hikoyalarining mutlaq ko‘pchiligi “kichik amerikaliklar” deb atalganlar hayotidagi eng oddiy insonlar taqdiriga bag‘ishlangan bo‘lsa, O‘. Hoshimovning qahramonlari ham ko‘p hollarda oddiy ishchi yoki mehnatkashlar qatlamidan iborat. Amerika adabiyotida O. Genri va o‘zbek adabiyotida O‘tkir Hoshimovning o‘ziga xos hikoyachilik maktabi borki, ularda e’tiqod, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini hikoyalar syujetining markaziy chizig‘ini tashkil etadi. Ikki adib hikoyalarida inson qadr-u qimmatini birlamchi o‘rinda bo‘lib, unga bo‘lgan oliyjanob munosabat qadrlanadi.

9. O. Genrining “Afsungarlarning tuhfalari”, “Birja dallolining sevgisi”, “Taqdir hazili” va O‘. Hoshimovning “Quyosh tarozisi”, “Baxt”, “Xayollarga bo‘laman tutqun...” hikoyalari tahlili natijasida aytish mumkinki, sevgi-muhabbat motivi tahlil chiziqlarining kesishuv nuqtasi hisoblanadi. Muhabbatlari uchun o‘zlaridagi eng qimmatbaho narsalarini qurbon qilishga tayyor oshiq-ma’shuq (“Afsungarlarning tuhfalari”), shunchalar bandligidan hatto bir kun oldin nikoh o‘qilgani xotirasidan ko‘tarilib, xotinidan qo‘l so‘ragan dallol (“Birja dallolining sevgisi”), “Shahrizodaning yangi ertaklari”ni o‘qib, orzular olamida yashayotgan hisobchi qiz (“Taqdir hazili”); xotining xohish-istaklarini amalga oshirish uchun hatto kechalari ham g‘isht quyib, pul topgan kuyov (“Quyosh tarozisi”), singlisini deb baxtidan yuz o‘girishga majbur bo‘lgan, ammo Yangi yil kechasi qorbobodan baxt so‘rab, unsiz yig‘lagan ma’suma ayol (“Baxt”) obrazlarining ichki olamiga xos ziddiyatlar portret, peyzaj tasvirlari, fikrlar, hislar oqimi, ichki monolog, tush vositasida tasvirlangan.

10. O. Genri hamda O‘. Hoshimov hikoyalarida xarakterlar mantiqi va voqealar mantiqi bir-birini to‘ldirib, qahramon psixologizmini ochishga yo‘naltirilgan. Har ikkala adib hikoyalarida voqea-hodisalar xarakterlar mantiqi asosida tizimlashtiriladi. Yozuvchilar qahramonlari ichki olamidagi evrilishlarni, ruhiy holatini, kechinma va dramatik vaziyatlarni aynan voqealar va xarakterlar mutanosibligi negizida tasvirleydilar. Bu jihat adiblar uslubiga xos mushtarakliklardan biri sanaladi.

11. O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalari tahlili natijasida ma’lum bo‘ldiki, tipik sharoit va tipik xarakter o‘rtasida dialektik mutanosiblik mavjud. Tashqi borliq va insonning ichki olami bir-biriga uzluksiz ta’sir ko‘rsatadi, hatto biri ikkinchisiga uyg‘unlashib ketadi. Adiblarning dunyoqarashi, boy va betakror uslubi, tipiklashtirish manerasi, badiiy-estetik mahorati, roviy nutqidan unumli foydalanishlari, kutilmagan yechim orqali kitobxonni hayratda qoldirishlari, ifoda usullarida mushtaraklik kuzatildi. Har ikki adib hikoyalari yakuni ochiq yechim bilan nihoyalanadi. Yozuvchilar sir saqlash priyomidan mohirona foydalanishadi, shu bois voqealar kutilmagan holda o‘zgarib, kitobxon hayratiga sabab bo‘ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ  
ЯЗЫКОВ**

**АВЕЗОВ ЭЛБЕК ТУРАЕВИЧ**

**ПРИНЦИПЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПСИХОЛОГИЗМА В  
АМЕРИКАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ  
(на примере рассказов О. Генри и У. Хошимова)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за №.B2021.4.PhD/Fil2093.**

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Умарова Махлиё Юнусовна**  
доктор филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Содиков Захиджон Якубжанович**  
доктор филологических наук, профессор

**Кучимов Улугбек Кучкарович**  
доктора философии по филологическим наукам

**Ведущая организация:**

**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № \_\_\_\_). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.

(Реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**И.М. Тухтасинов**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

**Х.Б. Самигова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

**Ж.А. Якубов**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В эволюционном развитии мирового литературоведения проза стала огромной экспериментальной площадкой, где проводятся уникальные эксперименты по превращению внутренних переживаний, душевных пейзажей в художественную реальность. В современном технократическом мире авторы в основном сосредотачиваются на анализе психики, а не на сюжете. В эпоху бурного развития науки и техники удивить человека, пробудить в душе бурю эмоций стало сложной задачей. В художественном произведении, в том числе в романах, психологический анализ служит изображению событий, тогда как в современном повествовании изображение события-явления способствует раскрытию душевного состояния, четкому, выразительному проявлению этого состояния в воображении читателя. Главной целью писателей становится раскрытие психологии героя, открытие загадок его души. В рассказах XIX-XXI веков больше повествуется о душевных переживаниях, эмоциональных изменениях человека, в отличие от его действий и поступков. Основной тенденцией в мировом и узбекском повествовании становится изображение человека не как средства деятельности, а как обладателя запутанного внутреннего мира.

В художественности народов мира художественный анализ судьбы человека, его душевных переживаний осуществляется на основе статуса познания мироздания и человека. Одним из важнейших факторов воплощения образа человека в рассказах, являющихся одним из малых жанров эпического типа, является также раскрытие его внутреннего мира. Потому как влияние внешнего мира также отражается и проявляется во внутреннем составляющем человека. Рассмотрение художественных произведений на основе психологического метода, сформировавшегося к концу XIX – началу XX века, в целом проблема художественного психологизма стала основным критерием. Изучение психологизма как художественного явления связано с двумя взаимосвязанными аспектами – природой психологизма, то есть спецификой и поэтикой понимания внутреннего мира человека, и мастерством психологического изображения, которое позволило выразить художественную идею автора о психологии человека. Каждый литературный период открывает разные аспекты новых этапов и методов психологического анализа. Изучение и сравнительное исследование психологии творчества знаменитых писателей Востока и Запада, их мастерства изображать внутренний мир послужат усовершенствованию макрокомпаративистики.

В узбекском литературоведении серьезное внимание уделяется вопросам изучения и исследования концепции психологизма в мировом контексте. Неоспорим тот факт, что “поскольку мы стремимся превратить Узбекистан в развитую страну, мы можем добиться этого только посредством ускоренных реформ, науки, просвещения и инноваций... Для повышения знаний и уровня не только молодежи, но и всего нашего общества в целом необходимы,

прежде всего, наука, просвещение, высокая духовность”<sup>1</sup>. Так как психологизм выражается автором произведения через восприятие внутреннего мира героя, его чувств, суждений, сознания и подсознания, он формирует систему поэтических средств. Исследование проблемы художественного психологизма на примере рассказов американских и узбекских писателей позволяет осветить литературный процесс этих народов, а также индивидуальный стиль авторов. Кроме того, художественно-эстетический мир каждого писателя своеобразен, и сравнительное изучение новых граней методов психологического анализа в его произведениях обеспечивает актуальность темы исследования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан Постановление Президента Республики Узбекистан за №ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Распоряжение Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № 124-Р «О проведении международной конференции «Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. “Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства.”

